ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

AYOLLAR JINSIY ORGANLARI YALLIG'LANISH KASALLIKLARI

Olimova Gulruxsor Sodiqovna
Bo'ston Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi klinik fan o'qituvchisi
Abduraximova Guljaxon Shoyadbek qizi
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti 4-kurs talabasi
+998 94 837 31 13 gulruxsorolimova@gmail.com
+998 90 623 06 65 guljahonabdurahimova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ginekologik kasalliklar orasida birinchi o'rinni egallagan ayollar jinsiy organlari yallig'lanish kasalliklari haqida malumotlar berilgan.Bunda kasallik etiologiyasi,klinik belgilari va davolash yo'llari bo'yicha ilmiy izlanish natijalari ko'rsatilgan.

Аннотация:В статье представлены сведения о восполителных заболеваниях женских половых органов,которые занимают первое место среди гинекологических заболеваний.Приведены результаты научных исследований по этиологии заболевания,клиническим симптомам и способам лечения.

Abstract: The article provides information about inflammatory diseases of the female genital organs,which take the first place among gynecological diseases.It shows the results of scientific research on the etiology of the disease,clinical symptoms and treatment methods.

Hozirgi kunda ayollar jinsiy a'zolarining yallig'lanish kasaliklari juda kop kuzatiladi.Bunday holarda ayollarda kuchli stress,tushkunlik,hayotga va yashashga loqaydlik,o'ziga bo'lgan ishonchning yoqolishi kabi noxush holatlarga olib keladi.Jinsiy a'zolarning yallig'lanish yengil shakldan tortib chidab bo'lmas diskomfortgacha bo'lishi mumkin.Alomatlar doimiy bo'lishi ham,davriy ravishda kuzatilishi,hayz yoki ovulyatsiya davri bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin[2].

Etiologik omil kasallik qo'zg'atuvchisi infeksion, mexanik, termik, kimyoviy, tromboz, qon quyilishi, to'qimalarning nekrozga uchrashi kabi omilar. Infeksiya



limfogen, gematogen, kanalikulyar yo'l bilan tarqaladi. Klinik o'tishi o'tkir, yarim o'tkir, surunkali kechadi va kasallikning qayta qo'g'alish davri bo'ladi. Infeksiya endogen va ekzogen yo'l bilan yuqadi[4].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024


THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Vulvit-asosan, jinsiy lablar yallig'lanishi.Ayol qinga kirish sohasi achishib, og'riq turganidan, qichishishdan noliydi. Ko'zdan kechirilganda to'qimalar qizarib shishgani, yiringsimon ajralmalar kelayotgani ko'rinadi, yaralar ham topilishi mumkin. **Davosi:**2%li borat kislota eritmasi, moychechak damlamasi bilan yuvib tozalab, sintomitsin yoki spreptomitsinli emulsiya surtiladi[1].

Bartolinit-katta vestibulyar bezlarning yallig'lanishi. Katta jinsiy lab sohasi qattiq og'rib, shishib ketishi va infiltratsiya paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi.Yallig'lanish yiringli bo'lsa, tana harorati ko'tariladi. O'tkir bosqichda bemorga o'rnidan turmay yotishi, zararlangan bez sohasiga muzli halta qo'yish, antibiotiklar va sulfanilamid preparatlari buyuriladi[4].

Kolpit-qinning yallig'lanishi. Oqchil kelishi, qinning qichishib og'rib turishi. Ko'zdan kechirilganda qin devori qizargan, shishgan, ba'zan och qizil tusda mayda toshmalar va yiring g'uborlari borligi ko'rinadi. Trixomonadali kolpitda- ajralmalar sarg'ish-yashil ko'pikli, zamburug'li kolpitda- suzmasimon oq massa ko'rinishida bo'ladi. **Davosi**-kasallikni keltirib chiqaruvchi qo'zg'atuvchini hisobga olib davo qilinadi. Qizlarda **vulvovaginit** ko'proq uchraydi.**Sababi**-ostritsalar,yot jismlar qinga kirib qolganda paydo bo'ladi.Davo yo'li etiologik omilga bog'liq[1].



Endometrit-bachadon shilliq qavatining yallig'lanishi. **Klinikasi**-qorinning pastki va dumg'aza sohasi simillab og'rib turishi. O'tkir shaklida tana haroratining ko'tarilishi, taxikardiya, et uvishishi ko'zga tashlanadi. Bimanual tekshirishda bachadon bezillab og'rishi, qisman kattalashuvi, bachadondan yiringli chiqindi kelishi kuzatiladi[3].

Sistit-qovuqning yallig'lanishi. Qovuqqa turli infeksiyalar tushishi oqibatida ro'y beradi. Paydo bo'lishiga ko'ra:birlamchi va ikkilamchi; kelib chiqishi bo'yicha:spetsifik va nospetsifik sistit farqlanadi. Kasallik o'tkir va surunkali kechadi. Ayollarda sistit aksariyat homiladorlik yoki tug'ruqdan keyingi davrda kuzatiladi[5].


Tajriba. Sistitda bemor tez-tez siyadi, siyganda og'riq sezadi, siygisi qistaganda va siygandan keyin zo'rayadi, lovullash, achishish, ba'zan siydikda qon va yiring paydo bo'ladi. Yallig'lanish qo'shni a'zolarga o'tganda temperatura ko'tariladi. O'tkir sistitning oldi olinmasa, surunkali tus oladi. Kasallikni aniqlashda siydik tahlili, sistoskopiya, sistografiya, ultratovush tekshiruvlari o'kaziladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Davosi:bemorning umumiy ahvoli va kasallik belgilariga qarab olib boriladi. Og'riq qoldiruvchilar, antibiotiklar, ko'p suyuqlik ichish, vanna, fiziomuolajalar buyuriladi[3].




Endoservitsit-bachadon bo'yni kanali shilliq pardasining yallig'lanishi. Oqchil kelib turishi, dumg'aza sohasida tortib cho'zayotgandek bo'lib seziladigan og'riqlar kuzatilib turadi. Qin ko'zgular yordamida ko'zdan kechirib qaralsa, bachadon bo'yni kanali qizargan, bachadon bo'yni kanalidan shilimshiq yiringli ajralmalar kelib turgani aniqlanadi. **Davosi:** Antibiotikli, sulfanilamidli dori darmonlar. Qinni chayib, mazli tomponlar qo'yish. Bachadon bo'yni kanaliga protorgol yoki lyugol eritmasi surib qo'yiladi[5].

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

AYOLLAR JINSIY A'ZOSIDA QICHISHISH



Vulvit-tashqi jinsiy a'zolarning yallig'lanishi. **Sabablari:**1.To'g'ri ichakdan o'tadigan gijjalar tufayli jinsiy a'zolarda qichishish yuzaga keladi va jarohatlangan teridan infeksiya kirishi. 2.Semirib ketgan qizlarning ko'p terlashi natijasida qichishib, terlar orqali tashqi jinsiy a'zoga infeksiya kirishi. 3.Follikulit, piodermit, chipqonlar ham infeksiya manbayi bo'lib xizmat qiladi. 4.Siydik ta'sirida bichilib, vulvit paydo bo'ladi. 5.Qin va bachadondan turli kasalliklar natijasida ajraladigan chiqindilar sababli vulvit paydo bo'lishi mumkin. **Davosi:**Tashqi jinsiy soha tuklarini olib tashlab, gigiyenik va antiseptik eritmalar bilan yuvish. Bemor o'rinda yotishi, ovqatlanish rejimiga rioya qilishi, umumiy quvvatni oshiradigan dorilar tavsiya etiladi[1].

Vulvovaginit-tashqi jinsiy a'zo va qinning yallig'lanishi. Spetsifik va nospetsifik yallig'lanishga bo'linadi. **Sabablari**-yosh qizlarda qinga yot jismlarning kirib qolishi, ko'pincha gijja kasalliklari(ostritsa), shikastlanishlar hisoblanadi**. Diagnostikada** bemor qizlarni ko'zdan kechirish, o'zidan va onasidan anamnez yig'ish, quloq voronkasi orqali vaginoskopiya qilish, sistoskopni qizlik pardasidan astalik bilan kiritib, vaginoskopiya qilish yaxshi samara beradi. Qo'shimcha tekshirish usullaridan bazal haroratni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Laboratoriya tekshirish usullarida keskin

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

kamqonlik aniqlanishi mumkin. **Davolash**: ingichka kateter yordamida dizenfeksiya qiladigan eritmalar rivanol (1:5000), furatsilin (1:10000), vodorod peroksidi 3%li eritmasi bilan qinni chayiladi. Qinni ekmalin (10MLN), penitsillin 30000 birlikda, 4ml 0,25%li dizotsin ballon yordamida purkab turiladi. Polimiksin, furazolidon, neomitsin 100000 bir. Og'riqni kamaytirish va yallig'lanish jarayoniga qarshi dori vositalarini qo'llash tavsiya etiladi[4].



Ayollar jinsiy sistema kasalliklarining oldini olish va davolashni respublikamizdagi tarkibida ayollar konsultatsiya markazi bo'lgan tug'ruq majmui va oilaviy poliklinikalar amalga oshiradi. Toshkentdagi akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot institutida, shuningdek, uning viloyatlardagi filiallari homiladorlik va tug'ruq jarayonlarining asoratsiz kechishi, onalar va bolalar muhofazasini ta'minlashda akusherlik va ginekologik yordamni ilmiy tashkil etish maqsadida faoliyat ko'rsatib kelmoqda[3].

Ginekologik kasalliklar bilan og'rigan bemorlar turli oqibatlar kelib chiqishini oldini olish maqsadida muayyan rejimga rioya qilishlari lozim.Ayol jinsiy a'zolarining kasalliklarida umumiy o'rnatilgan rejimga, yani ovqatlanish rejimi, dam olish, uyqu, nerv sistemasi va qon aylanish a'zolari faoliyatiga e'tibor berish, shuningdek, maxsus rejimga rioya qilish talab etiladi. Bu rejim jinsiy holatga, qorin ichidagi bosim va qo'shni a'zolarning holatiga taaluqlidir[6].

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, ayollar jinsiy a'zolari yallig'lanish kasalliklari bugungi kunda ayol va qizlar orasida ko'p uchrayotgan kasalliklar hisoblanadi. Yengil ko'rinishda bo'lgan kasalliklar ham o'g'ir tus olishi va bundan bepushtlik kasalliklari avj olishi ham mumkin. Bu holatda har bir ayol va qizlar e'tibor beradigan narsa shaxsiy gigiyena qoidalari hisoblanadi. Ichki kiyimni tanlashda tabiiy matolarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Sintetik matolar yuqori namlikni saqlaydi va bakteriyalar ko'payishi uchun sharoit yaratadi. Rangli va har xil hidli hojatxona qog'ozidan voz keching, sovun va dezodorantlarni shaxsiy gigiyenada kamroq ishlating. Ular shilliq qavat holatiga yomon ta'sir ko'rsatadi va mahalliy immunitetni pasaytiradi. Shaxsiy gigiyena vositalarini to'g'ri

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

tanlash uchun hidi kam bo'lgan intim gellarda yuving, so'ng toza va quruq sochiqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Hidi kam bo'lgan tozalovchi vositalar tarkibida kimyoviy qo'shimchalar kam bo'ladi va ular mahalliy immunitetni pasaytirmaydi.

Foydalanilgan adabiyolar:

1.Ya.N.Allayorov. Akusherlik va ginekologiya.-T.:Davlat ilmiy nashriyoti,2013. 329-332 betlar

2.Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" birinchi tom Toshkent 1954 yil 165 bet

3."Hotin qizlar kasaliklari" O'zME.Birinchi jild .Toshkent,2000-yil

4.Я.Н.Аллаёров,М.И.Расулова,Д.У.Юсупова.Патологик акушерлик –Самарканд,2007.

5.Ya.N.Allayorov.Akusherlik.-T.:"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashtiyoti, 2008.

6.Ya.N.Allayorov.Akusherlik va ginekologiya.-T.:Davlat ilmiy nashriyoti,2013. 352-354 betlar